



NAMANGANDA AMALGA OSHIRILGAN SALMOQLI ISHLAR IQTISODIYOT RIVOJI VA XALQIMIZ FAROVONLIGIDA NAMOYON BO‘LMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji va aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida 16-sentyabr kuni Namangan viloyatiga keldi.



Hududdagi bunyodkorlik sur'ati shahar darvozasi — aeroportdanoq ko'zga tashlanadi. Bu yerda 140 million dollar investitsiya hisobiga yangi terminallar barpo etilmoqda.

Davlatimiz rahbarining viloyatga o'tgan yilgi tashrifi chog'ida ushbu loyiha taqdimot qilingan edi. Bugungi kunda qurilish ishlari jadal.

Hozirgi aeroport turistlar oqimiga kichiklik qilyapti. Uch qavatli qilib qurilayotgan yangi terminalda yo'lovchi tashish quvvati 2,5 karra oshadi. Chegara nazorati va viza bo'limlari, biznes zali, savdo va ovqatlanish shoxobchalari, tibbiyot xonasi, Duty free do'konlari zamonaviy tashkil etiladi.

Shuningdek, aeroportda ulkan yuk terminali qurilmoqda. U kuniga 50 tonna yuk tashish va 90 ta mamlakatga eksport qilish imkonini beradi. Eng muhimi, bu orqali vodiya yagona kargo tizimi yaratiladi. Hududning biznes, eksport va tranzit salohiyati oshadi.

Masalan, bu yil Namangan viloyatiga 1,5 million xorijiy va 2 milliondan ortiq mahalliy sayyohlarni jalb qilish, xizmatlar eksportini

210 ming dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Andijon va Farg'ona viloyatlari eksporti ham oshib boryapti.

Aeroportda maxsus servis texnikalari ham yangilanadi. Bu turli hajmdagi samolyotlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Shuningdek, keytering, yonilg'i quyish majmuasi va boshqa xo'jalik binolari quriladi. Yangi terminallar kelgusi yil ishga tushirilishi ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari aeroport atrofidagi infratuzilmani unga mutanosib rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Dunyoning ilg'or tajribasidagi kabi aeroport atrofida mehmonxonalar, savdo va ko'ngilochar majmualar, barcha zamonaviy xizmatlar bo'lishi zarurligi ta'kidlandi. Avtoturargoh va servis obyektlari tashkil etib, mehmonlar uchun qulayliklarni kengaytirish vazifasi qo'yildi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Chust tumanidagi "Megaton" korxonasining gaz-beton bloki ishlab chiqarish majmuasida bo'ldi.

Aholi soni o'sib, urbanizatsiya kengayib borayotgani sifatli qurilish materiallariga talabni yildan-yilga oshiryapti. Mamlakatimizda qurilish materiallari tarmog'i shunga monand jadal rivojlantirilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar olib kelinib, yuqori samarador mahsulotlar o'zlashtirilmoqda.

"Namangan" erkin iqtisodiy zonasida joylashgan, "Turonbank" tomonidan moliyalashtirilgan gazoblok korxonasi shulardan biri. 40 million dollarlik ushbu loyiha doirasida Xitoy, Germaniya, Daniya kabi davlatlardan innovatsion texnologiyalar keltirib o'tatilgan. Shu bois, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va samaradorligi yuqori.

Masalan, Germaniya texnologiyasi energiya tejankorlikni ta'minlaydi. Bunday gazobloklardan qurilgan binoni tashqi izolyatsiya qilish shart bo'lmaydi, ichkaridagi issiqlik va salqinlik to'rt karra kam yo'qotiladi. Natijada elektr energiyasi xarajati 45 foizgacha qisqaradi.

Ishlab chiqarishda "Megaton" korxonasiga qarashli "Namangan sement"ning 550 markali

sementidan foydalaniladi. Bu orqali qo'shilgan qiymat zanjiri yaratilgan. Korxonada 500 ta yangi ish o'rni ochilgan.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi ish jarayoni, laboratoriya va mahsulotlarni ko'zdan kechirdi. Mutasaddilar mahsulot sifati, issiq va sovuqqa chidamliligi haqida ma'lumot berdi.

— Qurilish sanoatimiz zamon talabiga moslashib, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilayotgani yaxshi, — dedi davlatimiz rahbari. — Bunday innovatsion texnologiyalarni import ulushi yuqori bo'lgan boshqa tarmoqlarda ham qo'llash kerak. Shunda bozorda raqobat, xaridorlarda tanlov bo'lib, joylarda ish o'rmi ko'payadi. Buning uchun izlanuvchan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashda davom etamiz.

Mazkur korxonada yiliga 600 ming kub metr mahsulot ishlab chiqariladi. Bu viloyatda g'ishtga bo'lgan ehtiyojning 28 foizini qoplashi kutilmoqda.

Loyihaning ikkinchi bosqichida avtoklav gazoblok devori, maxsus kley, kimyoviy

qorishma va suvoqlarni mahalliyashtirish rejalashtirilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi Namangan tumanida barpo etilgan "Taraqqiyot" sanoat va servis zonasidagi loyihalar bilan tanishdi.

Mamlakatimizda tadbirkorlarga munosib sharoit yaratish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va aholi bandligini ta'minlash maqsadida joylarda texnopark va kichik sanoat zonalarini tashkil etilmoqda. Namangan viloyatida bugungi kunda 1,5 ming gektar maydonda 73 ta sanoat zonasi bor.

Buning natijalari Yangi Namangan tumanidagi Sohil mahallasida ham yaqqol namoyon. Ilgari tadbirkor va hunarmandlar o'z uylarida cheklangan sharoitda ishlagan bo'lsa, endilikda zamonaviy infratuzilma ega yaxlit majmuada faoliyat yuritmoqda.

"G'ijduvon tajribasi" asosida 10 gektar maydonda tashkil etilgan ushbu zonada 113 ta loyiha joylashtirilgan. Ularning barqaror ishlashi uchun budget hisobidan elektr

energiyasi, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, ichki yo'llar kabi zarur infratuzilma barpo etilgan.

Natijada yiliga 500 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish quvvati vujudga keldi, 4 ming 800 ta yangi ish o'rni yaratildi. Yondosh mahallalardan 170 nafar tadbirkor jalb etilgani, 350 dan ziyod xonadonda kooperatsiya asosida mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani aholining iqtisodiy faolligini yanada oshirmoqda.

Yana bir muhim tomoni, bu yerdagi tayyor uskuna va amaliyotdan foydalanib, ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga qayta o'qitish imkoniyati bor. Bu ishsizlik va kambag'allikni kamaytirib, aholining turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatuvchi servis markazlari ishini ko'zdan kechirdi, ustalar bilan suhbatlashdi.

Davomi 2-betda

Taraqqiyot odimlari



VODIY GAVHARI

1

Samolyotdan tushib, shahri Boburga qaray ot surdim. Boradigan, ko'radigan manzillar saf-saf edi safar rejamizda. Ammo Bobur shahrini ko'rish istagi hammasidan baland chiqdi. Axir atigi ikki-uch yilda dunyoga kelgan, erta-indin 500 ming kishini bag'riga oladigan ulkan shaharni ko'rish qaysi dilni orziqtirmaydi, qiziqirmaydi deysiz?!

Ulovimiz daryolari guvillab, soylari sharqiragan, qir-adirlarida chuchmomalar gullab, bo'tako'zlar

sollanib, cho'g'day qizg'aldoqzor dala-dashtlari tovsurang kapalaklar raqsidan sargashta, yam-yashil bog' u chamanlar o'lkasi — Andijon zaminida yeldek uchib boryapti.

Ketyapman-u, xayolimda uch-to'rt yil burungi voqealar jonlangandek bo'ladi. O'shanda o'tkazilgan yirik anjumanda davlatimiz rahbari bunday degan edi: "Andijondagi uy-joy muammosini hal qilish uchun ikki-uch yildan buyon o'zimni qiynayman. Chunki yer kam, uylarga talab yillar davomida to'planib qolgan edi. Bir xonadonda bir necha

kelin qaynonasi bilan yashayotgan oilalar ko'p. Shuning uchun uzoqni o'ylab, yangi shahar qurishga kirishdik. Bu yerda 130 mingdan ortiq xonadonli ko'p qavatli uylar barpo etiladi, 450 mingdan ziyod aholi yashaydi".

Aniq esimda, Prezidentimiz bu so'zlarni 2021-yilning 17-iyun kuni aytgan edi. "Yangi Andijon" deb ataladigan bo'lajak shahar poydevoriga birinchi g'isht ham o'sha kuni qo'yildi.

Bu xushxabar Andijonni bulutlardek qalqitgani, ummon kabi to'liqlantirgani haligacha ko'z oldimda turibdi. Ana-mana deguncha, Andijon tumanining pastu baland adirlari bag'rida 5, 7 va 9 qavatli 82 ta uy, 1680 o'rinli maktab, 420 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti, poliklinika, trikotaj korxonasi, ipoteka markazi qurildi. 3000 xonadonli 92 ta ko'p qavatli uyning kaliti baxtli oilalar egalariga topshirildi.

Uy-joylar, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy soha obyektlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun umumiy qiymati 33 milliard so'mga teng loyiha amalga oshirildi. Yangi uy-joylarga elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va oqova suv tarmoqlari tortildi, yo'llar yotqizildi. Hududda 15 gektarli "Ziyolilar bog'i", 6 gektar maydonda "Vatanparvar bog'i" barpo etilib, ularga 25 ming tupdan ortiq manzarali daraxt ko'chati, gullar ekildi.

Davomi 3-betda

1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni

YANGI O'ZBEKISTONDA ENG MUHIM SOHA — TA'LIM ENG HURMATLI INSONLAR – O'QITUVCHI VA MURABBIYLARDIR

Prezidentimizning shu yil 11-sentabrdagi "O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnatilgan xodimlarni mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga binoan bir guruh yurtidoshlarimiz mukofotlangan edi. Kuni kecha Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida davlatimiz rahbari ta'lim-tarbiya sohasi vakillari bilan muloqot asosida taqdirlangan pedagoglarga davlat mukofotlarini tantanali topshirdi. "Men ko'plab soha vakillariga unvon, orden va medallar beraman. Lekin ustozlar mukofotlanadigan kunni sog'inib kutaman. Ko'ksingizni bezab turgan orden-medallar muborak bo'lsin. Yurtimizda yuksak mukofotlarga munosib fidoyi muallimlar ko'paysin", dedi Prezidentimiz.



Ustozlar bayrami oldidan tashkil etilgan yuksak darajadagi yig'ilishda ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchi va murabbiylarni yanada qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi. Soha vakillari o'qitish sifatini oshirishga

oid taklif va mulohazalarini bildirdi. Tadbirdan so'ng ulardan ba'zilari bilan suhbatlashib, yig'ilish taassurotlari haqida so'radik.

Davomi 5-betda



Taraqqiyot odimlari

VODIY GAVBHARI

Abdusaid KO'CHIMOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Boshlanishi 1-betda

2025-yil 15-aprelda esa Prezidentimiz yana Andijonga bordi va “Yangi Andijon”ga Mirzo Bobur nomini berish taklifini bildirdi:

— O‘zining betakror ilmiy va ijodiy merosi bilan millatimiz, xalqimizni butun dunyoga tarannum etgan buyuk ajdodimiz — Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasini abadiylashtirish maqsadida Yangi Andijon shaharchasiga — Bobur shahri deb nom bersak, nima deysizlar?

Taklif boburshunos olimlar, ziyolilar, umuman, barcha andijonliklar qalbidagi orzularning ro‘yobi bo‘ladi go‘yo. O‘zini Bobur avlodidan deb yurganlarni cheksiz quvontirdi, vujudini faxru iftixor tuyg‘ulari bilan limmo-lim to‘ldirdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar o‘sha kunlari hayratdan “portladi”.

Hali eslaganimdek, “Yangi Andijon”ni qurishga bag‘ishlangan tantananing guvohi bo‘lganim uchun Bobur shahrining bugungi chiroyni ko‘rish men uchun ikki barobar hayajonli edi.

Uch-to‘rt yil davomida bu yerdagi ishlarni radiodan eshitib, gazetada o‘qib, televizorda, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rib-kuzatib kelayotganim rost. Ammo chin dildan tan olib aytaman, azizlar, burchalar bo‘lishi tasavvurimda ham, xayolimda ham yo‘q edi! Afsona desam afsonada, erak desam eraklarda topilmaydigan shohona manzaralar... Yaqinda yantoqlar sarg‘ayib, jizillovquklar “jizillab” yotgan adirlar o‘rmda qaldirg‘ochday tizilib turgan imoratlar, ravon ko‘chalar, maktablar, bog‘chalar, restoranlar, kafelar...

Mehri quyosh kabi mo‘l, qahri qilichdan keskir andijonliklarning arzimagan vaqtda asrlar bo‘yi changib yotgan qirlarda bunday shaharni bunyod etgani qaysi mo‘jizadan kam?!

Eslang, Andijon shahrining o‘zi necha yilda qurilgan? To‘qon yoxud Marg‘ilon-chi? Boburiylarning To‘qmahali bunyod etishiga qancha vaqt ketgan ekan?

Shunday farahbaxsh damlarda falak bir aylanib, bedov otini yeldirib Bobur Mirzo yangi kentga kirib kelsa, nima bo‘lardi? Uyg‘onish davrining buyuk hukmdori qanday holatga tushib, qanday xayollarni boshdan kechirdi?

Ehtimol, kindik qoni tomgan, jonidan ortiq suygan aziz tuprog‘iga sig‘may, Hind sori yuzlangan chorasiz kunlarida:

*Davron meni o‘tkardi sar-u somondin,
Ayirdi bir yo‘li meni xonumondin,
Goh boshima toj, goh baloi ta’na,
Nelarki boshimga kelmadi davrondin,*
deya alam, umidsizlik va pushaymonlik bilan bor dardu alaminii qalamdan olgan paytlari yodiga tushib:

*Murod vasling erur, ayila yod Boburni,
Unutmag‘il yana bu nomurod Boburni,*
degan armonlari mana endi oradan besh asr o‘tgach ro‘yobga chiqqaniga shukronalar qilib, o‘zini unutmagani, hech qachon unutmaydigan, hamisha yurak qo‘rida asraydigan xalqiga, xalqining xalqparvar yetakchisiga qarab:

*Bori elga yaxshilik yalq‘ilki,
mundin yaxshi yo‘q,
Kim degaylar dahr aro qoldi*

falondin yaxshilik,
deb beadoq minnatdorlik hislarini o‘sha mashhur g‘azali orqali ifoda etgan. Andijonning dashtu dalalari pahlavon shoimning alpona ovozigina ko‘mlib ketgan bo‘larmidi?

... Kunlar keladi, ko‘rasiz, shahri Bobur To‘jmahal misoli odamlarni mahliyo qiladigan dilbar maskanga aylanadi. Shaharning qoq o‘rtasida Boburshohning balandligi 35 metrl muhtasham haykali qad rostaydi. “Vatanparvar bog‘i”dagi “Vatanga qasamyod” monumenti, muzey, konsert va tomoshalar maydoni, Vatan ozodligi, tinchligi va himoyasi yo‘lida jon fido qilgan marhumlar xotirasiga o‘rnatilgan yodgorliklar xalqimiz, Andijonga keladigan mehmonlarning aziz maskaniga aylanib ketadi hali.

Bobur shahrining umumiy maydoni kichkina emas — 4 ming gektar. Uning 1439 gektarida 2000 ta ko‘p qavatli turar joy, savdo maskanlari qad rostaydi. 223 gektarida xizmat ko‘rsatish, 1820 gektarida yashil hududlar tashkil

etiladi. 499 gektar maydon yo‘llar va boshqa infrastruktura obyektlaridan iborat bo‘ladi.

Prezidentimiz zo‘r iftixor bilan ta’kidlaganidek, milliy madaniyat va san’atimiz, o‘zbekona mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik va hamkorlikni aks ettiradigan Bobur shahri yurtimizning eng obod go‘shalaridan biriga aylanadi.

2

Aylanadi!

Zero, andijonliklar ikkita davangiday odamni qo‘ltiqlab olib, Agra qal’asi devorlari ustida mashq qilgan, sharafli adibimiz Pirimqul Qodirov adolati ta’riflaganidek, “Dunyoning eng baland tog‘lari bo‘lgan Pomir, Oloy, Himolay va Hindikushlardan necha bor otlig‘u piyoda oshib o‘tgan; Markaziy Osiyoda, Afg‘oniston va Hindistonda qanday ulkan daryolar uchragan bo‘lsa, ularning hammasida quloq otgan; Parvardigor pahlavonlarcha bir jismoniy qudrat va bahodirlarga xos buyuk jasoratni daho darajasidagi iste’dod bilan birga ato etgan” Mirzo Boburning avlodlaridir.

Andijonliklar Uyg‘onish davrining dilbar siymosi bo‘lgan Bobur jasoratini yuragiga singdirgan, Hazrati Bobur kabi tinmay oldinga intilgan kishilardir. Dunyo esa intilganmiki. Intilgan murodga yetadi. Intilgan mayda-chuyda to‘siqlarni pisand qilmaydi. Intilganing qalbi daryo, ko‘ngli osmon qadar keng bo‘ladi — hovlisining torligi ham bilinmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati aholi zichligi bo‘yicha mamlakatimizda birinchi o‘rinda turadi. Viloyat respublika hududining 1 foizini, O‘zbekiston aholisining qariyb 10 foizini tashkil etadi.

— Biz bu yurtga kelganimizda, dastlab Xonobodga boringlar, keyingi 7-8 yilda bunyod etilgan bunday chiroyli shahar yaqin-atrofdagi yo‘qligini aytishdi, — deydi fransiyalik sayyoh Renal xonim. — Rosti, bu gapga uncha ishonmagan edik. Shaharni ko‘rganimizdan keyin esa zamonaviy uylar, ko‘chalar, bog‘laru xiyobonlarni qo‘yaverib, birgina havosining o‘zi shunchalar musaffo, buloq suvidek toza, simirib to‘ymaysiz. Yigirman dan ziyod millat vakillari bir tup daraxtdan ahlil. Qani endi bir-birining go‘shitini xomlay tala-tala qilishga tayyor turgan ba’zi mamlakatlarning so‘ravon noshukurlari kelsa, ko‘rsa, ibrat olsa shu qorako‘zlardan. Aytishlaricha, shaharcha haddan ziyod xarob bo‘lib ketgan ekan. Prezident Shavkat Mirziyoyev Xonobodni qaytadan quribdi, obod qilibdi. Faqat Xonobod emas, Andijonning hamma joyi obod bo‘liddi. Xalq shuning uchun ham o‘z Prezidentini ardolqar ekan, hurmat qilar ekan, ishonar ekan unga.

Sayohatchi xonimning iqrori izohga muhtoj emas, albatta. Lekin uning “...ishonmagan edik” degani boshqa bir voqeani yodga tushirdi.

O‘tgan asrning 90-yillari o‘rtalari edi. “O‘zbekistonda — Andijonning Asakasida

teng 411 ta loyiha bajarilgani, 12 mingdan ortiq yangi ish o‘rmi ochilgani, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish hisobiga 20,7 million dollar qiymatida import o‘rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqilgani, Oltinko‘l tumanida yiliga 33 million juft tibbiy qo‘lqop ishlab chiqarish quvvatiga ega yirik korxonalar foydalanishga topshirilgani tilga olindi.

Ammo Prezidentimizning ko‘ngli to‘lmadi. Xususan, Xonobod shahridagi o‘zgarishlar talab darajasida emasligi, shaharni obod qilishga oid



topshiriqlarning ayrimlari to‘liq bajarilmagani davlatimiz rahbarini qanoatlantirmadi.

Prezidentimizning oldingi safar kelishida ahvol batafsil o‘rganilib, 2017-2019-yillarda Xonobod shahrini kompleks rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqilgan va 3200 dan ziyod loyihani qamrab olgan mazkur dastur ijrosi uchun 500 milliard so‘m yo‘naltirilgan edi.

To‘g‘ri, o‘shandan keyin bir dunyo ishlar bajarildi. Shaharning Anhor mahallasi hududidagi uzoq yillar bo‘sh turgan sobiq 4-avtokorxona binolari va yer maydoni tadbirkorlarga “nol” qiymatda bo‘lib berilib, tashkiliy, moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi va bu yerda katta-kichik 13 ta korxona faoliyatini boshlab yubordi, 685 kishi ishli bo‘ladi.

Yana bir nechta yangi korxona tashkil etilib, odamlar ish bilan ta’minlandi. Ammo har qanday ishni tez va sifatli ado etishga odatlangan Prezidentimizning ko‘ngli baribir tashin topmadi.

Shu kuni barcha vazifalar ijrosiga doir muhim ko‘rsatmalar berildi, “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi.

Topshiriqdan so‘ng ushbu tog‘li hududda yengil konstruksiyalardan mehmon uylari tashkil etishga kirishildi. Sihatgoh hududidagi

E’tibor bering, 2016-yilga qadar bir necha yil davomida viloyat hududida birorta ham ko‘p qavatli uy qurilmagan edi. 2016-2024-yillarda 33 ming xonadon 875 ta ko‘p qavatli uy barpo etildi. Joriy yilda esa 12 ming xonadonli 300 ta ko‘p qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan. Shulardan 160 tasining kaliti allaqachon o‘z egalariga berilgan.

Yaqin o‘tgan zamonlarda kir yuvishga sovuni, yig‘lab turgan bolasini ovutishga so‘rg‘ichi, yer haydashga omochi, chopon yamashga ignasi, tom yopishga vassasi bo‘lmagan odamlar bugun

9, 14 qavatli imoratlarda rohatbaxsh hayot kechirmoqda.

Shu yillarda yana 249 maktab, 126 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti, 128 ta tibbiyot muassasasi, 8 ta musiqa va madaniyat obyekti, 350 ta boshqa obyekti barpo etilgani va ta’mirlangan ham xalqning bir jon, bir tan bo‘lib qilgan mehnatining natijasi, ko‘pda karam borligining isboti.

Andijon aeroportini modernizatsiya qilishda keng ko‘lamli qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarilgani ham viloyat talabidagi unutilmas voqealardan biridir.

Aeroport hududida uzunligi 3300, kengligi 60 metr bo‘lgan yangi 4E toifali uchish-qo‘nish yo‘lali, yurish yo‘lagi va 3 ta samolyotlar to‘xtash joyi — angar qurildi. Aeroport infratuzilmasining assiy qismi yangilandi. Shu tariqa Andijon xalqaro aeroportida zamonaviy, yirik ham kemalarini qabul qilish imkoni yaratildi.

4

Mutafakkir bobolarimiz “Yer boyliklarning onasi bo‘lsa, mehnat uning otasi”, deydi. Darhaqiqat, yer o‘z egasining qo‘liga tegmaguncha dehqonning kasosi oqarmaydi. Andijonda xuddi shunday yo‘ldan borildi. So‘nggi ikki yilda aholi bandligini ta’minlash, oilalar daromadini ko‘paytirish maqsadida dehqonchilik qilish uchun 150 ming fuqaroga 17 ming gektar yer maydoni ijaraga berildi. Ushbu yer maydonlarining assiy qismidan yiliga kamida ikki marta hosil olinmoqda.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan g‘o‘za qator oralariga soya ekish bo‘yicha Andijon tajribasi yaratildi.

Asaka tumanida ijaraga berilgan va tomorqa yer maydonlarida “Kompaniya — kooperativ — dehqon xo‘jaligi”, “Bir kontur — bir mahsulot” tamoyillari asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, ilg‘or ish uslublarini joriy etish, xususan, issiqxona xo‘jaliklarini tashkil etish borasida salmoqli ishlar bajarilmog‘da.

Tumandagi 13 mahallaning issiqxonachilikka ixtisoslashgani nafaqat mahsulot yetishtirish hajmi, balki aholining daromadi ko‘payishida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mahallalardagi 85-90 foiz aholining tomorqasida issiqxona barpo etilgan. Ularning tomorqadan unumli foydalanib, xalqimiz dasturxonini turli noz-ne‘matlar bilan to‘ldirayotgani, urug‘ va ko‘chat yetishtirish orqali katta daromad olayotgani, ko‘chatlar boshqa viloyatlarga yetkazib berilayotgani, shuningdek, Qirg‘iziston, Tojikiston va Qozog‘istonga eksport qilinyotgani ham bor gap.

Buloqboshida esa uzum yetishtirishga e’tibor kuchaytirilgan. Tumanning ko‘pgina mahallalari aynan uzumchilikka ixtisoslashtirilgan. Ulardagi aholining 323 gektar tomorqasida 4000 tonnadan ortiq uzum yetishtirilmoqda.

Mahsulotlar respublikamizdan tashqari Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Rossiya va boshqa qator davlatlarga eksport qilinyotgani, uzumchilikka ixtisoslashgan mahallalarning ko‘chalariga so‘ritoklar qilish tajribasi keng joriy etilgani va “Andijon tajribasi” sifatida boshlangan ushbu jarayon samara berayotgani esa alohida mavzu.

Shunday bo‘lsa-da, bitta misol keltiray. 2021-2022-yillarda tumandagi 21 ta mahallaning 40 ta ko‘chasidagi 982 ta xonadonga berilgan

“O‘zbekiston Prezidenti faxr bilan “Butun mamlakatimiz, Markaziy Osiyo mintaqasining zamonaviy, yirik shaharlaridan biri, vodiylar g‘avhari” deb ulug‘lagan Andijon, albatta, ko‘zlagan yorug‘ manziliga yetadi. Saxovatli quyosh nurlariga ko‘milgan munit, mohtob tonglar otmoqda O‘zbekistonning Andijon zaminida ham...

6,8 milliard so‘m kredit evaziga 26 kilometr uzunlikdagi uzum ishkomi barpo etildi. Yangi tajriba 2023-2024-yillarda ham davom ettirilib, tumandagi 18 ta mahallaning 50 dan ortiq ko‘chasiga 40 kilometr uzunlikda so‘ritoklar qilindi. Buning uchun 2000 ta xonadonga 18 milliard so‘m kredit berildi.

Tumanda uzum ko‘chati yetishtirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmog‘da. Uyog‘ini so‘rasangiz, uzumchilikka ixtisoslashgan mahallalardagi xonadonlarning har biri uzumdan yiliga o‘rtacha 15-20 million so‘mdan daromad olayotir.

— Yer, suv, havo o‘zingniki bo‘lganidan keyin o‘zimizning yerim, o‘zimizning bog‘im, o‘zimizning uyim deb ishlashdan ulug‘ lazzat qayda bor, azizlarim? — deydi Andijon tumanidagi “Omad — 97” fermer xo‘jaligi rahbari Omadxon Hamidova. — Hokimlik qo‘llab-quvvatlasa, davlat aytganingni bersa, suysa, muhtoj paytingda qo‘llab tursa, baland xirmonlar paydo qilasan-da! Yerning qalbiga qayiq salsang, yerga bir bersang, o‘n qilib qalqaradi saxovatli zamin.

Sho‘rolar zamonida kimning oyog‘ida kalishi, egnida bo‘z kamzuli bo‘lsa, eng boy odam hisoblangan. Bugun yengil mashinasi bo‘lmagan xonadonning o‘zi yo‘q.

— Millatimizni mahv qilgan, boshiga ming turli azob-ubqat solgan narsa paxta emas, balki paxtadan vosita qilgan sho‘rocha siyosat emasmi? — deya Omadxon opaning fikrini davom ettiradi kexsa paxtakor, O‘zbekiston Qahramoni Otaxon Alamatov. — Yaramas siyosat tufayli xalq yig‘ladi, yer yig‘ladi, osmon yig‘ladi, zamon yig‘ladi. Alamiga chidolmay “O‘t tushsin paxtasigayam!” deya begunoh o‘simlikni qarag‘agan onalarimizning farjodini eshitaverib, qo‘llari g‘o‘zapoyadai ingichka, qop-qora qizlarimizning mahzun qiyofalarini ko‘raverib, ichlarimiz ezilib ketdi-ku, axir.

Jasoratli yozuvchi Odil Yoqubov bejiz bong urmadi sobiq ittifoq deputatlarining majlisida. Yozuvchining nutqi sho‘ro saltanatini titratdi, qaltiratdi.

Afsuski, bu illat mustaqillikka yetganimizdan keyin ham davom etdi.

Prezidentimiz achchiq armon bilan boshqa mamlakatlarda o‘quvchilar 9-10 yo‘ o‘qisa, biz 5-6 yo‘ o‘qir edik degani naqadar chin, naqadar haqiqat.

Bugun Andijonda 760 ta umumta’lim, 14 ta ixtisoslashtirilgan, bitta Prezident ta’lim muassasasi va bitta ijod maktabi mavjudligi, ularda ta’lim olayotgan 610 mingga yaqin o‘quvchining birotasi bir daqiqa ham o‘qishdan boshqa yumushlarga jalb qilinmayotgani ayon haqiqat.

Bundan tashqari, 56 ta texnikum va 11 ta oliy o‘quv yurtida tahsil olayotgan 100 mingdan ziyod talaba ham shu qadar baxtli — ular “majburiy mehnat” degan iborani esdan chiqarib yuborgan.

5

Hazrat Bobur mashhur “Bobumoma” asarida Andijonni ta’riflar ekan: “Oshlig‘i vofir, mevasi farovon. Qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas... Andijon noshpotisidan yaxshiroq noshpotti bo‘lmas. Movarounnahrda Samarqand va Kesh (Shahrisabz) qo‘rg‘onidin so‘ngra mundin ulug‘roq qo‘rg‘on yo‘qtur. Uch darvozasi bor... To‘qqiz tamov suv kirar. Bu ajabdurkim bir yerdan ham chiqmas... Eli turkdur”, deydi.

Darhaqiqat, Andijon tuprog‘ida unib, suv ichgan mevalarning dovruqi yetti iqlimda mashhur.

Shundan bo‘lsa kerak, Prezidentimiz Andijonga safari chog‘ida hamisha mevasabzavot mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratadi. Yuqoridagi ibratli ishlar, yangidan barpo qilingan bog‘lar, uzumzoru olmozorlar ana shu e’tiborning totli mevalaridir.

Oltinko‘l tumanida 16 gektar yerda xomashyoni saqlash, qayta ishlash, ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Mebelsolizik kompleksi” kichik sanoat zonasini tashkil etildi. Bu yerda yiliga 160 ming dona mebel tayyorlash, mingta yangi ish o‘mi ochish, shuningdek, yiliga 10 million dollarlik mahsulotni eksport qilish imkoni mavjud.

Boshqa turar joylarga nisbatan arzon bo‘lgan “Zamonaviy qishloq” loyihasi ham Andijonda dunyoga keldi.

Ibratuzum yumushlarning yana biri

Prezidentimizning 2024-yil 15-fevraldagi “Andijon viloyatida “Ipak yo‘li” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorida keyin boshlandi. 3 milliard AQSH dollari qiymatidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyani o‘zlashtirish orqali 16 mingdan ziyod yangi ish o‘rmi ochilib, yiliga 20,1 trillion so‘mlikdan ortiq sanoat mahsuloti ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan “Ipak yo‘li” hademay yiliga 580,7 million dollar qiymatida qo‘shimcha eksportni amalga oshiradi. Mustaqilligimizning 34 yillik bayrami arafasida umumiy qiymati 56 million dollarga teng yirik loyihalar ishga tushirildi.

Bunday quvonchli ishlarni sanayverish mumkin. Ko‘zlanayotgan manzil — rejalar yanada ulkan.

Yuqorida Xonoboddagi ishlarning ayrimlarini qalamga olgan edik. Ha, ayrimlarini. Shaharda yuksalish jarayoni shiddat bilan davom etmoqda.

Xo‘jaobod tumanidagi “Andijon texnoparki” ham kichkina obyekt emas. 100 gektar adirlikka xitoylik investorlar tomonidan 300 million dollarlik loyiha doirasida barpo etilayotgan mazkur texnoparkda eng zamonaviy texnologiyalar asosida 51 ta zavod va korxona faoliyat yuritadi. Ushbu korxonalarda 82 turdagi qurilish mahsuloti ishlab chiqariladi. Dastlabki bosqichida hududdagi korxonalar tomonidan yiliga qariyb 60 million dollarlik mahsulot eksport qilinishi ko‘zda tutilmoqda. Hududdagi loyihalar ishga tushishi bilan 3000 ta yangi ish o‘rmi ochiladi.

Alqissa, endi Andijonda shu qadar ko‘p va xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqarilaypti, ularni sanab adog‘iga yetish qiyin. Ha, sanab sanog‘iga, aytib adog‘iga yetish mahol bo‘lgan o‘zgarishlar makoniga aylanib bormoqda qadim Andijon.

6

Lekin... Ne tongki, bugungi dorilamon kunlarni mensimaydiganlar, nafs qarmog‘iga ilinib, tekintomog‘lik girdobiga tushganlar ham yo‘q emas. Bunday kimsalarning davlat xizmatchilari, qonun himoyachilari, hokimlik vakillari orasida uchrayotgani anayam ayanchli.

Qarang, birgina Andijon viloyatining o‘zida keyingi ikki yilda tuman, shahar va hatto viloyat hokimining o‘rinbosarlari, boshqarmalarning rahbarlari darajasidagi yigirman dan ziyod rahbar aynan poraxo‘rlilik, korrupsiyon holatlar bilan qo‘lga olindi...

Andijonda omamviy tus olgan “kasallik”ning yana biri ko‘plab xususiy korxonalarda ishlayotgan ishchilar nomining rasman ro‘yxatlarda qayd etilmay, ularga konvert usulida haq to‘lanishidir. Bu kabi illatlarga allaqachon chek qo‘yish shart edi...

“Beaby” — Parvardigor”, deymiz, lekin yana boshqa bir g‘avm ham bor. Ular dorilamon kunlarning qadriga yetmaydi, pana-pastqamlarda pisib, o‘tgan-ketganga tosh otishdan bahr oladi.

To‘g‘ri, kamchiliklar bor, oz emas. Buni hech kim yashirayotgani yo‘q. Davlatimiz rahbari har muloqotida tilga olaypti, kamchiliklarni butlash choralarini izlayapti. Ammo yuz yillar mobaynida to‘planaverib, tepalikday uyulib ketgan muammolarni hal qilish naqadar og‘ir mashqatqat ekan ham ayon haqiqat!

Xullas, azim daryolarning suvi ham goh-gohida loyqalanib turadi. Guruch kurmakasiz bo‘lmaydi. Cho‘llarni bo‘stonlarga aylantirayotgan, adirlarda yangi shaharlar qurayotgan, har yili trillion-trillionlab daromad topayotgan, o‘tgan bir yilning o‘zida 442 ming 384 ta yangi ish o‘rmi ochib, bu yil ishsizlik darajasini 7 foizdan 5,3 foizga tushirishni ko‘zlayotgan andijonliklar katta yo‘lga to‘siq bo‘ladigan illat-g‘ovlarning hammasini tag-tubi bilan quritishga qodir.

O‘zbekiston Prezidenti faxr bilan “Butun mamlakatimiz, Markaziy Osiyo mintaqasining zamonaviy, yirik shaharlaridan biri, vodiylar g‘avhari” deb ulug‘lagan Andijon, albatta, ko‘zlagan yorug‘ manziliga yetadi. Saxovatli quyosh nurlariga ko‘milgan munit, mohtob tonglar otmoqda O‘zbekistonning Andijon zaminida ham...

Ha:
*G‘alalar so‘ylar roz,
Yulduzi osmonlarga.
Somon yo‘li payandoz,
Muhtasham karvonlarga.
Bo‘lay desangiz quddosh,
Sohibi zamonlarga.
Hamrohdin sizga quyosh,
Andijon tomonlarda,
Andijon tomonlarda...*



2026-yil 1-yanvardan dehqon va fermerlarga o‘zi yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘i nol stavkada bo‘ladi. Albatta, dehqon va fermerlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini nolga tenglashtirish aslida qishloq xo‘jaligida tom ma‘nodagi inqilobiy qarordir. Bu haqda keyinroq...

Har bir faslning o‘z tarovati, jilosi bor. Qishning ziniyati, bahorning go‘zalligi, yozning tantiliygu kuzning barakoti kishiga huruz baxsh etadi. Ayni paytda yurtimizda oltin kuz.

Kuz pishiqchilik, sarflangan mehnat samarasini ko‘rish mavsumi. Yil bo‘yi fermer va dehqonlarning tinimsiz mehnatidan yetilgan hosilni yig‘ishtiradigan payt.

Ma‘lumodlarga ko‘ra, o‘tgan yili ular tomonidan 9 million tonna don, 3 million tonnadon ortiq paxta, 16 million tonnadon ziyod sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonna go‘sh t va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirildi.

Resurslarni tejaydigan intensiv texnologiyalar asosida 50 ming gektar maydonda sabzavot yetishtirilib, hosildorlik an‘anaviy usulga nisbatan 200-250 sentner

yangi bozorlarga chiqmoqda. Bu esa mamlakatimizning jahon savdosidagi o‘rmini mustahkamlab, valyuta tushumlarini ko‘paytirishga xizmat qilyapti.

Xorijiy hamkorlarning yurtimiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talab va qiziqishi yildan yilga ortib bormoqda. Bu esa mahsulotlarning tabiiyligi, ekologik tozaligi va yuqori sifati bilan bevosita bog‘liq.

So‘nggi yillarda zamonaviy agroteknologiyalar va ilmiy yutuqlarni amaliyotga tatbiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, ayniqsa, suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishlari sharoitida tomchilatib sug‘orish va boshqa samarador texnologiyalardan keng foydalanilyapti. Raqamli platformalar, sun‘iy yo‘ldosh monitoringi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari hamda seleksiya va gen



Ahamiyatlisi, bu, birinchidan, haqiqiy ishlab chiqaruvchini qo‘llab-quvvatlash degani. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining nol stavkada bo‘lishi har kuni dalada mehnat qilib, mahsulot yetishtirayotganlarning soliq yukini yengillashtiradi. Bu dehqon va fermerlarga ortiqcha xarajatsiz adolatli daromad olish imkonini beradi.

Ikkinchidan, bu orqali rentabellik va investitsiyalar ko‘paydi. Soliq yuki kamayishi tufayli tejab qolingan mablag‘ hisobiga dehqonlarimiz o‘z xo‘jaligini rivojlantirish, yangi texnika xarid qilish, mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa bevosita agrar sohaning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Uchinchidan, taqdimotda qayd etilganidek, bu “soya”dan chiqishni anglatadi. Agrar sektor vakillari faoliyatini imtiyozli soliqqa tortish orqali rasmiylashtirish ular biznesining shaffofligini oshiradi. Biznesning har bir vakiliga kredit va davlatning qo‘llab-quvvatlash dasturlariga kirishini yengillashtiradi.

murojaatlar bo‘layotgan edi. Oziq-ovqat mahsulotlarini sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘i 12 foizni tashkil etmoqda. Mazkur masala Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ko‘tarilgandi. Davlatimiz rahbari bu borada dehqon va fermerlarga qulaylik yaratish, soliq yukini yengillashtirish bo‘yicha mutasaddirlarga ko‘rsatma bergandi. Shunga muvofiq, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, malakali xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirokida qishloq xo‘jaligini “soya”dan chiqarish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Ayni paytda mamlakatimizda 100 mingdan ortiq fermer xo‘jaligi mavjud bo‘lsa, bu imtiyoz 48 mingdan ortiq fermerning soliq yukini kamaytiradi. Shu bilan birga, rentabellikni bir necha bor oshirishga xizmat qiladi. Ya‘ni bugungi kunda rentabellik darajasi 5-7 foiz bo‘lsa, bu imtiyoz uni 15 foizga oshiradi. Qolaversa, “soya”dagi iqtisodiyot kamayadi. Chunki kichkina bog‘ va tomorqalarda QQS yo‘q, lekin sanoatlashgan bog‘larda mavjud. Bu esa mahsulot yetishtirishda qator noqulayliklarga sabab bo‘ladi.

Umuman, bu yengilliklar soha vakillarining shaffof ishlashiga turki beradi, joylarda yirik sanoatlashgan plantatsiyalar va qayta ishlash korxonalari ko‘payishiga mustahkam zamin yaratadi. Muhimi, endi fermerlarimiz qo‘lida juda katta miqdorda aylanma mablag‘ qoladi.

Eng asosiysi, fermerlarimizda manfaatdorlik oshadi, qolaversa, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish kengayadi va “soya”dagi iqtisodiyotdan chiqamiz. Shuningdek, endi



AGROSANOATNING TO‘LIQ ZANJIRI

HOSIL YO‘QOTILISHINI KAMAYTIRIB, QO‘SHILGAN QIYMAT HAJMINI ORTTIRADI

oshdi, sof daromad gektaridan 6-8 ming dollarni tashkil etdi.

Dehqon xo‘jaliklari tashkil etish uchun 75 ming gektar yer ijtimoiy muhtoj 180 mingdan ortiq aholiga bo‘lib berilib, 200 mingdan ziyod ish o‘rni yaratilgan real daromadlarni oshirish, kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Agrar sektorni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Chunki u barqaror iqtisodiy o‘rinish, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi turmush darajasini yaxshilash bilan bevosita bog‘liq.

Qishloq xo‘jaligi yurtimiz iqtisodiyotida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Mazkur tarmoq, ayniqsa, aholining katta qismi istiqomat qilayotgan qishloqlarda bandlikni ta‘minlashning asosiy manbaidir. Qulay iqlim va tabiiy sharoitlar tufayli O‘zbekistonda turli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Agrar soha rivojlanishi nafaqat ichki bozorda oziq-ovqatga talabni qondirish, balki mamlakatning eksport salohiyatini kuchaytirishga ham keng yo‘l ochadi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetkazib berish geografiyasini bosqichma-bosqich kengaytirib, yangidan

muhandisligi borasidagi innovatsiyalar orqali hosildorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va inson omilini minimallashtirish imkonini yaratilmoqda.

Sohada kadrlar malakasini oshirish, ta‘limni rivojlantirish va texnologiyalar transfer ko‘lamlari kengaytirish ishlari ham faol davom ettirilmoqda.

Hududlarni barqaror rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi muhim ahamiyat kasb etadi. Fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks dasturlarni amalga oshirish, moliyalashtirish, subsidiya hamda imtiyozli kreditlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga qishloq aholisining iqtisodiy mustaqilligini ham ta‘minlayapti.

Yana bir muhim jihat. Alohida strategik ahamiyatga ega yo‘nalish — to‘liq agrosanoat zanjirini shakllantirish, ishlab chiqarishdan tortib, chuqur qayta ishlash va eksportgacha bo‘lgan jarayon. Ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, eksportning samarali yo‘lga qo‘yilishi hosil yo‘qotilishini kamaytirish bilan birga mahsulotning qo‘shilgan qiymatini

sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, mevasabzavotchilikda mahsulot sifati va ko‘rinishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bois, zamonaviy sovitkich majmualari, qayta ishlash korxonalari, transport va saqlash omborlari infratuzilmasi, shuningdek, sertifikatlash va standartlashtirish tizimiga yo‘naltirilgan investitsiyalar eksportning yangi yo‘nalishlarini ochib, yurtimizda yetishtirilgan mahsulotlarning xalqaro bozorlarda yil davomida mavjudligini ta‘minlamoqda.

Shu bilan birga, har qarich yerdan oqilona foydalanishda yangicha yondashuvlar, klaster tizimi va agroxoldinglarni rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Bu ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlashchilar, logistika va eksportchilarni birlashtirish orqali bozor ishtirokchilari o‘rtasida manfaatli munosabatlar o‘rnatish, raqobatbardoshlikni oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini yanada yaxshiroq boshqarishga xizmat qiladi.

Davlat, ayniqsa, kichik ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlab, ularni yirik ishlab chiqarish va sotuv zanjirlariga integratsiya qilishga ko‘maklashyapti. Agrar sohani rivojlanishi

faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy ustuvorlik kasb etadi. U sanoat, transport, energetika, savdo va ta‘lim kabi tarmoqlarga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Zero, qishloq xo‘jaligining barqaror rivoji global hamda tashqi bozordagi xavf-xatarlar va iqlim o‘zgarishlari sharoitida oziq-ovqat mustaqilligi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Davlatimiz rahbari shu yil 4-sentabr kuni qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi. Unda kelasi yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo‘jaligi korxonalari dehqon va fermerlarga o‘zi yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotini (g‘alla va paxtadan tashqari) sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘i nol stavkada bo‘lishi qayd etildi. Shu bilan birga, mahsulotni yetishtirishda urug‘, o‘g‘it, yoqilg‘i, transport, elektr kabi xarajalar uchun hisobga olingan QQSni qaytarib berish amaliyoti ham saqlanib qoladi.

Darhaqiqat, dehqon va fermerlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini nolga tenglashtirish katta imkoniyat. Bunday muhim qadim odatiy soliq islohoti emas, balki aniq amaliy natijaga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Bu yangi imkoniyatlarni yaratadi va agrar sohaning barqaror rivojlanishini kafolatlaydi.

MARKAZDAN OLISDA, BIROQ O‘ZGARISHLAR OG‘USHIDAGI SHAHAR

Islohotlar amalda



Ana shunday imkoniyatlar sabab sahra bag‘rida “Qizilqum gavyari” deya ta‘riflanuvchi mo‘jaz shahar qad rostladi. Navoiy viloyati markazidan qariyb 250 kilometr olisda joylashgan ushbu kentning bayram nafasi ufurayotgan keng va ravon ko‘chalarini kezarkansiz, turli ijtimoiy soha obyektlari qatori bunyod etilayotgan ko‘p qavatli binolar ko‘zingizni quvnatadi. Yaqin orada Zarafshon shahriga kelmagand kishi bunday go‘zallik qarshisida lol qilishi tabiiy.

Zarafshon shahri deganda, avvalo, ko‘z o‘ngimizda asosan tog‘-kon sanoati rivojlangan hududgina namoyon bo‘lardi. Biroq so‘nggi yillarda shaharga investitsiya jalb etish, xorijlik hamkorlar bilan yirik loyihalar amalga oshirilishi natijasida ko‘plab zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi.

Prezidentimizning Navoiy viloyatiga tashrifi davomida aynan Zarafshon shahri infratuzilmasini yanada yaxshilash masalasi ham muhokama qilingan edi. Jumladan, shahar aholisi 2-3 yilda 100 mingdan oshishi bois, Zarafshon hududini Tomdi tumani hisobidan 2000 gektarga kengaytirib, 150 ming kishi yashashi uchun sharoit yaratish zarurligi ta‘kidlangan edi.

Albatta, yangi, zamonaviy sharoitlarga ega xonadonlarda istiqomat qilish fuqarolarning hayotiga ham ijobiy ta‘sir

ko‘rsatib, bugungi islohotlardan minnatdorligini oshiradi. Hozir shaharda turkiyalik hamkorlar bilan ana shunday zamonaviy 12 qavatli uylar barpo etilmoqda. Ushbu turar joylar nafaqat sifati, balki atrofida aholi uchun zarur barcha infratuzilma obyektlari barpo etilayotgani bilan ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

— Zarafshon shahridagi yangi qurilishlar va bunyodkorlik jarayonida ishtirok etayotganimizdan mamnunmiz, — deydi qurilish bo‘yicha mutaxassis Muhammad Arslon. — “Aqlli shahar” loyihasi shaharning 14-kichik tumanida qad rostlamogda. Majmua 12 qavatli 11 ta blokdan iborat bo‘lib, 13-qavatda penthaus loyihalashtirilgan. Ushbu ko‘p qavatli uylarda 31 kvadrat metrdan 141 kvadrat metrgacha va keng balkondan iborat 860 ta xonadon joylashgan. Hududda bolalar o‘yingohlari va sport maydonchalari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, yugurish va velosiped yo‘laklari hamda vorkaut maydonchasi quriladi. Dam olish maskani esa favvoralar, manzarali daraxt va o‘simliklar uyg‘unligida bunyod etiladi. Ushbu ko‘p qavatli uylarning birinchi qavatli tadbirkorlik faoliyati uchun mo‘ljallangan.

Bugungi Zarafshonning imkoniyatlar ko‘lami kechadigan tubdan farq qiladi. Shahar aholisining soni va mashg‘ulot turi kun sayin o‘zgarimoqda. Ayni paytda

hududda tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznes subyektlarini kengaytirish borasida e‘tibor qaratilayotgan sohalar ko‘p.

Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan “Zarafshon oyna” korxonasi eng rivojlangan mamlakatlar va Germaniyaning yetakchi kompaniyasi uskunolari bilan jihozlangan. Zavoddagi kommunikatsiyalar tayyor mahsulotni bevosita ombordan temir yo‘l va avtotransport vositalari orqali yetkazib berish imkoniyatiga ega bo‘lib, ishlab chiqarilgan mahsulotni mahalliyashtirish darajasi 99 foizni tashkil etadi. Yiliga qiymati 40 million dollarga teng tayyor mahsulot sotish ko‘zda tutilgan bo‘lib, yillik eksport rejası 20 million dollarni tashkil etadi.

250 million dollar yo‘naltirilgan ushbu megaloyiha ishga tushishi natijasida hududdagi 700 dan ortiq fuqaro doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi. Ishchilarning aksariyati yoshlardan iborat va zamonaviy texnologiyalarni mustaqil

boshqarmoqda. Shuningdek, bu yerda yosh mutaxassislar ilmiy izlanish olib borishi uchun ham barcha imkoniyat yaratilgan.

Bu kabi ishlab chiqarish korxonalari va yangi kichik biznes subyektlari ishga tushirilishi hududda ish o‘rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida har bir mahallaning drayver yo‘nalishi belgilanib, tadbirkorlikka qiziqishi yuqori fuqarolarga amaliy ko‘mak ko‘rsatilyapti. Natijada ular tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yib, mahallasidagi ishsiz aholining bandligini ta‘minlamoqda. Qisqasi, Zarafshon tajribasi asosida kambag‘allik bartaraf etilmoqda.

— Zarafshon shahrida dastlab 275 ta oila kambag‘allik reyestriga kiritilgan edi, — deydi Zarafshon shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i Mohirod Jo‘rayev. — Bugunga kelib ular soni 153 taga tushdi. Ushbu oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha alohida dastur asosida ishlanmoqda. Jarayonda “yetitita imkoniyat va mas‘uliyat” tamoyiliga amal qilgan holda ro‘yxatdagi oilalar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda. Joriy yilning olti oyida mingga yaqin ishsizning bandligi ta‘minlandi. Kasb va malakaga ega bo‘lmagan fuqarolar turli kasb-hunarlariga o‘qitilib, qayta tayyorlov kurslariga jalb qilinmoqda.

Yirik sanoat korxonalarining bunyod etilishi bilan, tabiiyki, hududga mehmonlar oqimi ham ortmoqda. Bu esa hududda savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari rivoji uchun juda muhim. Shu sababli so‘nggi yillarda Zarafshonda mehmonxonalar soni sezilarli darajada ko‘paydi. Yaqinda barcha qulaylikka ega yana bir zamonaviy mehmonxona ishga tushirildi.

— Zarafshonda xizmat ko‘rsatish sohasi jadal rivojlanmoqda, — deydi mehmonxona ish yurituvchisi Abdurahmon Hasanov. — Yurtimizda tadbirkorlarga berilayotgan imtiyozlar va qulay biznes muhiti bu jarayonda muhim omil bo‘lmoqda. Yangi qurilgan ushbu mehmonxona 95 o‘rinli bo‘lib, xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun barcha zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Kelgusida mehmonxonalar sonini ko‘paytirishni maqsad qilganmiz.

Shahardagi o‘zgarishlar tibbiyot sohasida ham namoyon bo‘lmoqda. Shahar tibbiyot birlashmasidagi o‘zgarishlarni bu yerdagi zamonaviy tibbiy jihozlar misolida ham ko‘rish mumkin. Bemorlar yaqin yillargacha uyda yoki

viloyat markazidagi shifoxonalarda statsionar sharoitda muolaja olgan bo‘lsa, hozir shaharning o‘zida sifatlı tibbiy xizmatdan foydalanmoqda.

— Tibbiyot birlashmamiz 2010-yilda tashkil etilgan bo‘lib, faqat poliklinikaga ega edi, — deydi Zarafshon shahri tibbiyot birlashmasi bo‘lim boshlig‘i Inoyat Hasanov.

— 2020-yilga kelib turli kasalliklar bo‘yicha bo‘limlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi va ko‘plab zamonaviy tibbiy texnika bilan jihozlandi. Oxirgi bir-ikki yilda yana turli tibbiy uskunalar keltirilib, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati oshdi. Albatta, shahar aholisi juda mamnun. Chunki endi viloyat markazi yoki poytaxtga bormay, turli tibbiy ko‘riklar va hatto ayrim murakkab jarrohlik amaliyotlari malakali mutaxassislarni jalb etgan holda shu yerning o‘zida o‘tkaziladi.

Zarafshon shahri tumanlararo perinatal markazi tug‘urug‘ kompleksi 35 o‘rindan iborat. Chaqaloqlar patologiyasi bo‘limiga olib kelingan zamonaviy apparatlar erta tug‘ilgan chaqaloqlarni sog‘lomlashtirish, hayotini saqlab qolishda katta imkoniyatga ega. Mazkur perinatal markaz Zarafshon shahridan tashqari Uchquduq, Tomdi tumanlari aholisiga ham xizmat ko‘rsatadi.

Bu yil 60 yillik yubileyini nishonlash arafasida turgan Zarafshonda aholining farovon yashashi, davlatdan rozi bo‘lishi uchun qancha imkoniyat bo‘lsa, barchasi ishga solinmoqda. Bunday yangilanishlar shu yerni vatani sifatida, yurtimiz taraqqiyoti uchun samarali mehnat qilayotgan keksayu yoshni to‘lqinlatiradi.

Shaharga oqshom tushishi bilan turfa rang chiroqlar yog‘dusi atrofini yoritadi. Kun bo‘yi bunyodkorlik va tog‘-kon ishlari bilan band bo‘lgan shahar ahli tungi sayrda farzandu nevaralari bilan markaziy istirohat bog‘i sari oshiqadi. Ularning qay biri bilan suhbatlashmag, bugunidan ko‘ngli to‘q, ertangi kunga ishonchi baland ekaniga amin bo‘lasiz. Bir so‘z bilan aytganda, sahra bag‘ridagi javohir deya ta‘riflanuvchi Zarafshon shahri farovonlik sari ildamlab bormoqda.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni

YANGI O‘ZBEKISTONDA ENG MUHIM SOHA — TA’LIM

ENG HURMATLI INSONLAR — O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARDIR

Boshlanishi 1-betda

O‘qituvchi ekanimdan cheksiz faxrdaman

Nodira NABIYEVA,
To‘raqo‘rg‘on tumanidagi
37-maktab o‘qituvchisi:

— Qarang, bugunga kelib o‘qituvchilar ham chempion sportchilardir Prezident sovg‘asi sifatida avtomobil oladigan bo‘ldi. Menga topshirilgan mashina birgina men va oilamning emas, namanganlik barcha ustozlarga bo‘lgan ehtirom belgisidir.

Prezidentimiz bilan uchrashuvdagi hayajon haligacha tark etgani yo‘q. Bu — katta shara. Qolaversa, o‘z kasbidan rozi, hayotidan baxtiyor ustozlardan biriman. Hozir 2000 dollar maosh olib ishlayapman. Buning uchun o‘zim kabi ko‘plab o‘qituvchilar nomidan davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdim.

2024/2025-o‘quv yilida dunyodagi eng nufuzli Oksford universitetining doktorantura bosqichida o‘qish uchun 100 foizlik grantni, taxminan 300 ming dollar miqdoridagi stipendiyani yutib oldim. Nafaqat O‘zbekistonda, balki jahonda ham deyarli qo‘l urilmagan ilmiy ishim mavzusi meni shu yutuqqa sazovor etdi. Eshitish qobiliyatini yo‘qotgan o‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitish masalasi chet elda ham muhim ekan. Mavzuga doir ilmiy o‘quv qo‘llanmam Germaniyaning nufuzli nashriyotida chop etilib, 8 tilga tarjima qilindi va xalqaro kitob do‘konlarida keng savdoga qo‘yildi. Amerikalik professor-o‘qituvchilar ham ushbu qo‘llanmaga katta qiziqish bildirganini faxr bilan aytmoqchiman. Ular 50 ming dollar



gonorar to‘lab, qo‘llanmamdan qo‘shimcha o‘quv dasturlari qatorida foydalanyapti.

Bundan tashqari, 20 ga yaqin ilmiy maqolam Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Hindiston, Italiya, Rossiya kabi davlatlarning nufuzli jurnallarida chop etildi. Prezidentimiz bilan uchrashuvda oldimga yana ko‘plab maqsadlar qo‘ydim. O‘zim ishlab chiqqan metodikalarni yurtimizda keng ommalashtirib, eshitish qobiliyatini yo‘qotgan bolalarning ham ingliz tilini o‘rganishiga ko‘maklashmoqchiman.

Davlatimiz rahbari mas‘ullarga men bilan birga ishlash topshirig‘ini berdi. “Bu metodikani hamma maktabda joriy qilishimiz kerak, dunyo tan olyapti. Nasib qilsa, yaqin kelajakda Nodiraxonning metodologiyasi degan fikr paydo bo‘ladi” degan ishonchi kasbiga mehrimini yanada oshirdi. Bularning barchasi uchun benihoya minnatdorman.

Butun dunyoga o‘rnak qilishga arzirli munosabat

Ibrohim Said Abdulla
Ali Alhajri,
BAA Xalifa universiteti
prezidenti, “Do‘stlik” ordeni
sohibi:

— O‘zbekistonning yuksak davlat mukofotini qabul qilib olish — men uchun katta shara. Buni nafaqat shaxsiy faoliyatim e‘tirofi, balki mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik ramzi deb bilaman. Zaminigizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarning ilmiy merosi bugungi ko‘plab kashfiyotlarga asos bo‘lib xizmat qilyapti. Yangi Toshkent va Olimpiya shaharchasi, Islom sivilizatsiyasi markazini borib ko‘rdim. Yangi shahar va sport majmuasi butunlay zamonaviy qiyofa kasb etgan. Islom sivilizatsiyasi markazi esa arxitektura jihatidan ham, ilmiy tomondan ham g‘oyat mukammal. Eritilgan muvaffaqiyatlar juda hayratlanarli. Xalifa universitetida bunday ajoyib va muhtasham meros alohida qadrlanadi. Asosiy binolarimizdan biriga Muhammad Xorazmiy nomini bergan bo‘lsak, yana birini Abu Ali ibn Sino deya ataganmiz. Toki ustoz va talabalarimiz shunday buyuk olimlarni har kuni yod olib tursin.

Xalifa universiteti 8 yildan buyon BAAdagi eng nufuzli universitet bo‘lib kelyapti. Bu muvaffaqiyatga, albatta, juda kuchli ilm-



fan, innovatsiya, ta‘lim va xalqaro hamkorlik asosida erishganmiz. Universitetimizda 50 dan ortiq davlatning yoshlari o‘qiydi. O‘zbekistonlik talabalar ular orasida eng ilg‘or va eng raqobatbardosh. Mamlakatimizda juda ko‘plab islohotlar amalga oshirilyapti. Ayniqsa, ta‘lim sohasidagi ishlarni e‘tirof etish joiz. O‘tgan yili kelganimda bu yerda juda ko‘p iqtidorli talabalarni ko‘rganman. Bir yil davomida yurtingizdagi “Yangi O‘zbekiston” va Al-Xorazmiy universitetlari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazdik. Prezident maktabining 8 o‘quvchisini Xalifa universitetiga qabul qildik. Ayni paytda esa O‘zbekistonda ilk marotaba aviatsiya va

Prezident avtomobil bilan taqdirladi



Billura IKROMOVA,
Romitan tumanidagi 38-maktab
o‘qituvchisi:

— Yurtimizdagi ta‘lim tizimi imkoniyatlaridan foydalanib, “El-yurt umidi” jamg‘armasi ko‘magi bilan Buyuk Britaniyaning Reding universitetida tahsil olib qaytdim. Boshqa davlatlardan kelganlar, ayniqsa, qizlar O‘zbekistondan borgan talabalarga juda havas qilardi. Chunki ular ham ishlab, ham o‘qib, xarajatini qoplagan bir paytda biz o‘n soatlab kitob o‘qib, ilm oldik. Shu sabab ham o‘qishni imtiyozli diplom bilan tamomladim. O‘zbekistonga qaytganimda bir nechta nufuzli tashkilot ish taklif qildi. Lekin davlatimizning g‘amxo‘rligiga javoban xalqimizga munosib xizmat qilishga bel bog‘ladim. Uyimizdan 250 kilometr olisidagi cho‘l hududda joylashgan maktabda dars bera boshladim. O‘n yildan buyon bu maktabda ingliz tili o‘qituvchisi bo‘lmagan.

O‘quvchilarimiz xalqaro mehnat bozoriga tayyor

Eldor KARIMOV,
G‘uzor tumanidagi 1-politexnikum
direktori, “Shuhrat” medali sohibi:

— 2024-yilda Germaniyaning hunarmandchilik palatasi va Avestos kompaniyasi bilan hamkorlikda G‘uzorda to‘liq olmon standartiga asoslangan kasbiy ta‘limni yo‘lga qo‘yishni reja qilgandik. Kichik mehnatimiz yuksak e‘tirof etilib, ko‘ksimga medal taqilganidan xursandman. Davlatimiz rahbari “Mukofot yoqdimmi?” deya otalarcha samimiy so‘raganida, Prezidentimizning qo‘lidan olish, ayniqsa, boshqacha bo‘lganini aytdim.

Biz o‘quv muassasamizda ham olmon standartini joriy qila oldik. Ayni paytda 64 o‘quvchi shu standart bo‘yicha tahsil olyapti. Germaniyalik ta‘lim ekspertlari o‘tkazgan oraliq imtihonda 34 o‘quvchimiz muddatidan oldin xalqaro mehnat bozoriga tayyorligi aniqlandi. Sakkiz xodimimiz Germaniyada ikki oy malaka oshirib kelib, yosh avlodga bilim va ko‘nikmasini o‘rgatayapti. Bir yarim mingdan ziyod o‘quvchimizning 250 nafari dual ta‘lim asosida o‘qiyapti. Ular tumandagi 54 ta korxonaga joylashtirilgan.

Prezidentimiz 2021-yili Qashqadaryoga tashrif chog‘ida “Sho‘rtangaz kimyo majmuasi”ni politexnikumimizga homiy tashkilot sifatida



biriktirgan edi. Endi har yili 27 o‘quvchimiz majmuaga amaliyot uchun jalb etiladi. Ular amaliy va nazariy ko‘nikmalarini mustahkamlash barobarida oyiga 6-7 million so‘mdan maosh ham olyapti.

Shuningdek, G‘uzorda aholining imkoniyati va talablaridan kelib chiqqan holda zamonaviy kasblar orqali xizmat ko‘rsatish ham yo‘lga qo‘yilgan. Mana shu imkoniyat tufayli 2025-yilning 9 oyida o‘quvchilarimiz 2 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ ishlab topdi. Bu pul ularga ish haqi, xodimlarga ustama qilib berish hamda ta‘lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga sarflanayapti.

kosmik texnologiyalar sohasidagi loyihalarni boshladik. Ushbu jarayonda ishtirok etish baxtiga erishganimdan xursandman. Kuni kecha O‘zbekiston rahbari bilan uchrashuvda eshitganlarim — maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘yicha e‘lon qilingan tashabbuslarning barchasi reallikka asoslangan va kelajagi bor. Ular ijrosi tufayli O‘zbekiston yanada taraqqiy etadi va gullab-yashnaydi.

Shu o‘rinda bir gap. Mamlakat Prezidentining ustoz-muallimlar bilan bir necha soat muloqot qilganiga umrida birinchi marta guvoh bo‘ldim. Davlat rahbari va o‘qituvchi o‘rtasida bunday samimiy

munosabat o‘rnatilishi butun dunyoga o‘rnak bo‘ladigan tajriba.

Menga berilgan yuksak mukofotni esa hamkorlik va do‘stligimizni yanada mustahkamlash ramzi sifatida qabul qilaman. Shu ma‘noda, kelajakda talabalar almashinuvini, birgalikda o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirmoqchimiz. Xususan, toza energetika, suv ta‘minoti, sun‘iy intellekt yo‘nalishida har ikki mamlakat uchun manfaatli yangi tizimlarni barpo etmoqchimiz. Mamlakatlarimiz o‘rtasida kelgusi avlodlarimiz farovonligi uchun xizmat qiladigan ko‘priklarni birga barpo etishga doimo tayyormiz.



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlari.

Bugun bizga hamma havas qilyapti



Ulug‘bek MAMAJONOV,
So‘x tumanidagi 14-maktab
o‘qituvchisi:

— Bir necha yildan buyon So‘x tumanida oilaviy yashab, ishlab kelyapmiz. O‘qituvchilik kasbim ortidan bu yerda katta obro‘ qozondim. Bugun 25 million so‘m maosh olyapman. Shukrki, bir o‘qituvchi

uchun kerakli barcha sharoitga egamiz. Uy oldik, zamonaviy avtomashinali bo‘ldik.

Uchrashuvda davlatimiz rahbariga So‘xga alohida e‘tibori uchun tuman ahli juda xursandligini aytdim. Binobarin, eng olis anklav hududda ham bu yil 3 ta maktab kapital ta‘mirdan chiqarilib, 3 ta yangi bog‘cha qurildi. Men faoliyat yuritayotgan maktabga esa davlatimiz tomonidan 11 yarim milliard so‘m mablag‘ ajratildi. Natijada 420 o‘rinli qo‘shimcha bino bunyod etildi. Majud 620 o‘rinli bino esa to‘liq yangilandi.

Muloqotda deyarli so‘xlik bo‘lib ketgan fuqaro sifatida o‘quvchilarimning otionalari bildiradigan bir muhim taklifini aytdim. Barcha tuman va shaharlar qatori So‘xda ham ixtisoslashtirilgan maktab ochilsa, hududdagi yosh, iqtidorli o‘quvchilar uchun ajoyib imkoniyat bo‘lishini aytganimda, davlatimiz rahbari shu yerim o‘zida mas‘ullarga topshiriq berdi. Endi So‘xda ham ixtisoslashtirilgan maktab ochiladi.

Tarbiyachilik kasbining nufuzi baland

Husnora ABDULLAYEVA,
Oltinko‘l tumanidagi 2-maktabgacha
ta‘lim tashkiloti direktori:



— Davlatimiz rahbari muloqotidan juda katta hayajon bilan chiqdim. Bundan keyin yanada yangi va yuksak mamlarni ko‘zlab, ishlashga shay, ishonchga “labbay” deb javob beradigan quvvat oldik uchrashuvdan. Keyingi paytlarda mamlakatimizda ta‘limga e‘tibor oliy darajaga ko‘tarildi. Zero, har bir bolaga o‘quv qurollari yetkazib berilishi, ustoz-murabbiylar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi, har bir tarbiyachi uchun alohida o‘quv mashg‘ulotlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqilishi kabi e‘tibor hech qaysi davrda bo‘lmagan.

Bugun bog‘cha va maktablar yagona tizimga birlashtirilgani natijasida ta‘limda uzviylik ta‘minlandi. Biz — maktabgacha ta‘lim tashkilotlari xodimlari maktab direktori va pedagoglarining oylik maoshi va toifasiga havas qilardik. Bugun bog‘cha mudirlari va tarbiyachilarining ham oylik maoshi 70 foiz oshdi. Menajerlik sertifikatiga ega bo‘lsa, 30 foiz ustama ham olyapti.

Men faoliyat yuritayotgan bog‘chada 300 tarbiyalanuvchi 10 yo‘nalishdagi to‘garaklarga jalb qilingan. Tarbiyachilarga o‘qish imkoniyati yaratilganidan foydalanib, o‘rta ma‘lumotli xodimlarimiz 1+5 bakalavriat ta‘limi bo‘yicha oliy ma‘lumot olmoqchi. Zero, yig‘ilishda 7000 dan ortiq davlatlag‘chisida 120 mingga yaqin pedagog bo‘lgani bilan ularning atigi 34 foizi oliy

ma‘lumotli ekanini aytdi. Tarbiyachilarning maktab o‘qituvchilari kabi toifa olishi uchun OTM diplomini talab etilayotgani bois, 1+5 tizimi kerak edi. Davlatga tegishli va xususiy bog‘cha tarbiyachilarini ishdan ajralmagan holda oliygohlarda o‘qitish yo‘lga qo‘yilsa, yiliga qariyb 10 ming tarbiyachi oliy ma‘lumotli bo‘ladi. Har bir viloyatda “Yangi avlod” bog‘chalari tashkil qilinishi, ularda tarbiyachilar ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘rganishi ham maktabgacha ta‘limga yana bir yangi qadam, yangi nafas olib kiradi. Xususiy bog‘cha tarbiyachilari ham bu imkoniyatlardan bemaol foydalanishi esa tizimda tenglik qaror topayotganining amaldagi ko‘rinishidir. Shunday ekan, endi tarbiyachilik kasbining nufuzi har qachongidan baland bo‘ladi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Munojot MO‘MINOVA
tayyorladi.



“Bugunga kelib o‘qituvchilar ham chempion sportchilardir Prezident sovg‘asi sifatida avtomobil oladigan bo‘ldi. Menga topshirilgan mashina birgina men va oilamning emas, namanganlik barcha ustozlarga bo‘lgan ehtirom belgisidir.

Yaxshiliklarning eng avvali — ustozlarga!

Shorustam SHOMUSAROV,
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti arabshunoslik oliy maktabi
professori, “Do‘stlik” ordeni sohibi:



— Davlatimiz rahbarining O‘qituvchi va murabbiylar kuni oldidan biz bilan hamsuhbat bo‘lgani, mukofotlarni alohida ehtirom bilan topshirgani tarixiy voqea bo‘ldi.

Qirg‘ besh yildan buyon Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida yoshlarga ta‘lim berish barobarida darsliklar, qo‘llanmalar, o‘quv lug‘atlari ishlab chiqqan pedagog sifatida Prezidentimizning ustozlar rahnamosi ekanini alohida e‘tirof etgim keladi.

Bunga birgina misol. O‘ta go‘zal va zamonaviy me‘moriy uslubda qurib bitkazilgan Islom sivilizatsiyasi markaziga birinchi bo‘lib biz — ustoz va murabbiylar kirib bordik. Buning uchun chuqur minnatdorlik bildiramiz. Zero, markaz dunyoning chinakam sakkizinchi mo‘jizasiga aylanibdi degan yakdill xulosaga keldik. Ochiq‘i, u yerdagi sharoit, noyob eksponatlar, boy ma‘naviy merosdan ko‘z uza olmadik. Shunda “Bu markazga ziyovillar, talabalar va o‘quvchi yoshlar — barchasi kelishi, biz ko‘rganlarni ular ham ko‘rishni kerak” degan fikr xayolimizdan o‘tdi.

Bugun oliy ta‘lim muassasalarimiz soni 200 dan oshdi. Talabalarimiz safi esa 1,5 millionga kengaydi. Aynan shunisi quvonarli. Mana shunday bebaho boyliklarni, ajdodlarimiz merosini ko‘p sonli yoshlar bilan baham ko‘ra olamiz. Bugun yigit-qizlarimiz boy tariximizni, ajdodlarimiz hayotini o‘rganishga, ilmiy tadqiq etishga bajonidil tayyor. Oliy ta‘limga tatbiq etilayotgan mislsiz imkoniyatlar ularni shunday ezuq ishlarga ruhlantirayotgani bilan ham qimmatli. Faqat o‘qish, ilm egallash bilan mashg‘ul yoshlar mehnatining samarasini ko‘r-yapti. Hatto to‘lov-shartnoma asosida o‘qishga kirgan bo‘lsa ham davlat budjeti hisobidan o‘qish imkoni berildi.

